



INFORMASION PUBLITSISTIKA VA JURNALISTIKANING INFORMATSIYA BERISH FUNKSIYASI

Hasanboy Madolimov

NamDU o'qituvchisi

Publitsistika ijtimoiy hayotni yoritishning o'ziga xos, alohida bir usuli bo'lib, matbuotda keng o'rin tutishi ma'lumdir. Publitsistika davrning dolzarb voqealari hodoalarini faktlarga asoslanib ifodalovchi ijod turidir. Publitsistika jamiyat hayotining barcha qirralarini qamrab olish uchun qator xillarga bo'linadi. Ijtimoiy-siyosiy publitsistika, iqtisodiy-ishlabchiqarish publitsistikasi, madaniy-ma'naviy hayotni aks ettiruvchi publitsistika (uning ilmiy publitsistika, adabiy-badiiy publitsistika, sport publitsistikasi, san'at publitsistikasi kabi qator ichki turlari mavjud) shular jumlasidandir. Ijtimoiy hayotni ijtimoiy-siyosiy nuqtai nazardan bo'lsa-da o'ziga xos usul – hajviy jihatdan yorituvchi hajviy publitsistika ham mavjuddir. O'z tarkibiy tuzilishi bo'yicha esa publitsistika informasion, tahliliy va badiiy publitsistikaga bo'linadi, bu esa uning hayotni qay tarzda yoritishi bilan bog'liqdir. Shuni aytish kerakki, publitsistikaning barcha xillari va turlari, avvalo, hayotni tasvirlashga xizmat qiladi, shu jihatdan ularning barchasi matbuotning tasvir funksiyasi doirasiga kiradi. Ammo uning tahliliy va badiiy turlari hayot voqealarini aks ettirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi, ya'ni ko'proq tahlil va hayotni adabiy-badiiy tasvirlash bilan shug'ullanganliklari uchun mazkur qismlarni ishimizning keyingi boblarida o'rganamiz. Tasvir funksiyasining markazida esa jamiyat voqealari haqida xabar beruvchi, ularni ilk bor tasvirolovchi informasion publitsistika turadi.¹ Informasion – axboriy publitsistika jurnalistika nazariyasiga doir ilmiy adabiyotlarda ancha keng o'rganilgan. Rus matbuotshunoslaridan Ye.Proxorov, A.Tertichniy, V.Voroshilov va boshqalar o'z asarlarida bu masalaga

¹.Informasion publitsistikani "axboriy" atamasi bilan ham atash mumkin. Qarang: M.Xudoyqulov. Jurnalistika va publitsistika. To'ldirilgan va qayta ishlangan nashri. Toshkent: "Tafakkur", 2011. – 140-bet.



ancha keng to'xtalib o'tganlar.² O'zbekistonlik tadqiqotchilardan F.Nesterenko, F.Mo'minov, Q.Ernazarov, Yo.Mamatova, va boshqalarning ilmiy maqola va monografiyalarida axboriy janrlar borasida muhim fikrlar keltiriladi.³ Ayrim mualliflar axboriy publitsistikani, ko'pincha, informasion jurnalistika turi sifatida bayon etadilar. Ammo bu bilan masalaning mohiyati o'zgarmaydi, zotan, publitsistika jamiyatning shu kundagi hayotini aks ettiruvchi asar – matn bo'lsa, jurnalistika uni o'quvchiga yetkazib beruvchi ijtimoiy jarayon, vositadir.

Informasion publitsistika tahliliy publitsistika bilan ham bog'liqdir. U hayot voqealarini tasvirlar ekan yuz bergan yangilik va voqealar haqida xabar berish bilan birlikda ayrim hollarda ularni tahlil ham qiladi, izohlaydi, ya'ni tasvirda tahlil unsuri ham mavjud bo'ladi. Ammo informasion publitsistikada hayotning eng muhim, ko'zga ko'rinib turgan tomonlarini aks ettirish, odamlarni ijtimoiy voqea va hodisalardan xabardor qilish birinchi o'rinda turadi. U hayotni obrazlar vositasida jonlantirib aks ettiruvchi badiiy adabiyot bilan ham ma'lum munosabatda bo'ladi, ayrim o'rinlarda uning vositalaridan foydalanadi. Ammo informasion publitsistikaning eng muhim, bosh vazifasi hayotdagi voqea va hodisalardan kishilarni xabardor qilish bo'lganligi boisidan unda badiiy vositalardan juda kam, eng zarur holatlardagina foydalaniladi.

Informasion publitsistikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning tezkorligidadir. Ya'ni u jamiyat hayotida yuz bergan voqea va hodisalarni tezlik bilan ilg'ab olib, o'quvchiga yetkazishi shart. Ana shu xususiyati bilan u tahliliy va badiiy publitsistikadan ajralib turadi. Bu talab matbuot faoliyat ko'rsatgan barcha davrlarda turli usullar bilan amalga oshirilgan. Dastlabki davrlarda yangiliklar xat orqali, o'rgatilgan kaptarlar vositasida yig'ilgan bo'lsa, keyinchalik telefon, telegraf kabi elektron vositalar orqali amalga oshirildi. XXI asrga kelib informasiya yig'ish

² Qarang: Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. М.2003. Ворошилов В.В. Журналистика. СПб, 1999. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – Москва:, 2000.

³ Нестеренко Ф.П., Ирнazarov К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. 1-часть. Учебн. пособ. – Тошкент: 2002. Замоновий журналистика. – Тошкент: ЎЗМУ, 2009. Репортерлик фаолиятининг назарияси ва амалиёти. Ирнazarov К.Т., Маматова Я.М., Тошалиев И.Э. Ўқув қўлланма. Тошкент: ЎЗМУ, 2002. 12. Информатсия в печати. Краткий курс лекция. Составители К.Т.Ирнazarov, Я.М.Маматова. – Тошкент: НУУЗ, 2000.



va tarqatishning eng yangi va zamonaviy texnik usullari – internet, faks va boshqalar qo‘llanila boshlandi va informasion publitsistikaning tezkorlik xususiyati misli ko‘rilmagan darajada ortdi. Hozirgi kunga kelib o‘quvchi dunyoning qaysi bir burchagida, qaysi bir mamlakatda bo‘lib o‘tgan voqea va hodisalardan o‘sha zahoti xabar topish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Bunda matbuot nashrlari ham muhim o‘rin tutib kelmoqda. Gazeta va jurnallar yangiliklarni tarqatishda ayrim hollarda internet, radio, televideniedan ortda qolsa ham ularda bosilgan materiallar aniqligi, yozma ravishda bayon etilishi, ishonchli va hujjatligi bilan ajralib turadi. Respublikamiz gazetalari ham tezkorlik masalasida dunyo matbuoti standartlariga yaqinlashib kelmoqda, ijtimoiy hayotda yuz bergan voqea va hodisalar haqidagi xabarlarni o‘quvchilarga o‘z vaqtida yetkazib bermoqdalar.

Ma‘lumki, informasion publitsistika jamiyat hayotini aks ettirishning mazmuniy va shakliy ko‘rinishlari bo‘lmish o‘z janrlariga ega bo‘lib, bular xabar, reportaj, intervyu, hisobot kabilardan iboratdir. Informasion publitsistikaning birinchi, bosh janri bu – xabardir. Xabarlar ommaviy axborot vositalarining barchasi uchun eng ko‘p foydalaniladigan janrdir.

Informasiyalarga ehtiyojning oshib borishi natijasida telegraf yordamida informasiyalar yetkazila boshlagan. Faqat bunday xizmatlarning qimmatligi sababli ma‘lumotlar qisqa shaklda yuborilgan (XIXasrda). Bu esa xabar janrining vujudga kelishiga omil bo‘lgan. Texnika taraqqiyoti tufayli ma‘lumotlar bazasi kengayib borib, ma‘lumotlar olish osonlashgani bilan ushbu janr bugungi kungacha saqlanib qoldi, ya‘ni xabar janrining tezkorligi uchun undan voz kechilmadi.

Xabar janrining ichki xususiyatlari axboriy publitsistikaning bosh talablaridan kelib chiqadi. Ya‘ni xabar jamiyatda bo‘layotgan voqea va hodisalar, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faktlar va boshqalarning asl mohiyatini o‘quvchiga yetkazib berishdan iborat bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, xabarda “Kim?”, “Nima?”, “Qachon?”, “Qaerda?” kabi savollar orqali informasiya yetkaziladi. Bundan birinchi savol – “Kim?” voqea-hodisaning ishtirokchisini⁴ anglatadi.

⁴ Neuberger Ch., Kapern P., Grundlagen des Journalismus. – Wiesbaden: Springer Fachmedien, 2013. – 47-ber



Ikkinchi savol “Nima?” voqea va hodisaning ijtimoiy ahamiyatini bildiradi. Zero, matbuot uchun har qanday voqea va hodisalar emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, ko‘pchilikning qiziqishini uyg‘otadigan, lozim bo‘lsa, jamoatchilik fikrini shakllantiradigan voqea va hodisalargina muhim hisoblanadi. “Qachon?” savoli esa informasion publitsistikaning ikkinchi talabi – voqea va hodisalarning zamondagi o‘rnini belgilaydi. To‘rtinchi savol – “Qaerda?” esa axboriy publitsistikaning makon talabidan kelib chiqadi, bo‘lib o‘tgan voqeaning mohiyatini, joyini belgilaydi. “Ishonch” gazetasining 2020-yil 28-yanvar 17-sonida⁵ “Kun nafasi” ruknida xabardan misol keltirsak:

O‘zbekiston Tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov boshchiligidagi komissiya 28-yanvar kuni Berlinda o‘tadigan “Yashil Markaziy Osiyo” tashabbusi taqdimoti bo‘yicha xalqaro konferensiyada qatnashadi.

Kun.uz

Ushbu xabarda “kim?” – Abdulaziz Komilov boshchiligidagi komissiya, “nima?” – ... o‘tadigan “Yashil Markaziy Osiyo” tashabbusi taqdimoti bo‘yicha xalqaro konferensiyada qatnashadi, “qachon?” – 28-yanvar, “qaerda?” – Berlinda. Ko‘rinib turibdiki, xabarda ilk informasiyaning barcha jihatlari mujassamlashgan.

Respublikamizda chiqadigan umusiyosiy, ixtisoslashgan va tarmoq gazetalari hamda xususiy nashrlar faoliyatida xabarlar keng o‘rin olib kelmoqda. Avvalda ta’kidlanganidek, xabarlarda “eng muhimi avval keladi. Lekin eng muhimi nima? Buni jurnalist xabarga oid savollar orqali aniqlashtiradi”.⁶ Masalan, “Xalq so‘zi” gazetasining 2019-yil 27-mart sonida “Yangiliklar, voqealar, tafsilotlar” rubrikasi ostida respublikamizning ichki hayotidan olingan xabarlar berilgan. Jumladan, “Orolga madad”⁷ sarlavhasi ostida berilgan xabar shunday boshlanadi:

“Qoraqalpog‘iston respublikasining Mo‘ynoq tumani hamda Xorazm viloyatida “Orolga madad” shiori ostida xayriya hashari o‘tkazildi. O‘zbekiston Ekologik partiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan ushbu tadbirda AQShdagi

⁵ kun.uz. Кун нафаси // “Ishonch” газетаси, 2020 йил 28 январь

⁶ Neuberger Ch., Kapern P. Grundlagen des Journalismus, Wiebaden: Springer Fachmedien, 2013. – 47-бет

⁷ Одамбоев О. Оролга мадад // “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил 27 март



Kolumbiya universitetining “The World Aral Region Charity INC” ko‘ngillilar tashkiloti vakillari ham qatnashdi”.

Xabarning ana shu qismi alohida ajratib berilgan. Bu lidda, yuqorida aytib o‘tganimizdek, xabarning asosiy mazmuni keltirilgan, davomida esa bu faktning tafsilotlari keltirib o‘tilgan:

-Bog‘ot, Shovot va Yangiariq tumanlaridagi uchta umumta’lim maktabi hududiga ichimlik suvini tozalovchi uskunalarni beg‘araz yordam sifatida o‘rnatib berdik, - deydi tashkilot volontyori Robert Villard. Bundan keyin ham Orolbo‘yi mintaqasida inson salomatligini asrashga yo‘naltirilgan loyihalarda faol ishtirok etamiz.

Mo‘ynoq tumani hududida “Do‘stlik” ekobog‘i barpo qilindi. Besh ming tupdan ziyod daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi. Shuningdek, “Amudaryo” suv xo‘jaligi inshootlariga ekskursiya uyushtirildi.

Odilbek Odamboev

“Xalq so‘zi” muxbiri

Yuqoridagi xabarda faktologik usulning barcha jihatlari o‘z aksini topgan va bo‘lib o‘tgan voqeaning joyi, vaqti, shaxsning ismi va kasbi aniq ko‘rsatilgan.

Informasiya yetkazishda xabar janridan foydalanishning yana boshqa jihatlari ham mavjud. Bular baholash, ishontirish va prognoz usullaridir. Masalan, jurnalist biror bir korxonaning ishga tushganligi haqida xabar bermoqchi bo‘lsa, uning o‘sha sohada tutgan o‘rni va keyingi faoliyati haqida ham xabar beriladi, ya’ni fakt jurnalist tomonidan baholanadi. Bu jurnalistdan katta mahorat talab etadi. Chunki jurnalist kichik matn ichiga katta auditoriya ishonchini sig‘dira olishi kerak. Bu janrdagi ayrim materiallarda ma’lum bir faktlar keltirilishi bilan birlikda turli xil maslahatlar, taklif va tavsiyalar ham berilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, respublikamizning markaziy gazetalar jurnalistikaning tasvir funksiyasini ado etishda xabar va uning turli xillaridan keng foydalanib kelinmoqda. Ammo respublikamiz gazetalarida bu janr hali to‘lig‘icha o‘z o‘rnini topgan, deya olmaymiz. Chunki, ko‘pgina xabarlar umumiy tarzda



beriladi, ularning mavzulari yetarli darajada keng emas. Ijtimoiy hayotning eng muhim masalalari xususida o'quvchini qiziqtiradigan xabarlar juda kam bosilmoqda. Hayotda uchrab turadigan ayrim favqulodda voqealar borasida ham axborotlar ko'proq berib borilsa, o'quvchilarni ulardan ogohlantirishga xizmat qilishi mumkin. Sababi, bunday brisant xabar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ayniqsa, gazetalarimizda tanqidiy xabarlar kamayib ketmoqda.

Jurnalistlarning tashkilotlar faoliyatini bevosita kuzatish imkoniga ega bo'lganlaridan so'ng informatsiya yetkazish salohiyati ham ortdi. Bu esa turli janrlar yaralishiga turtki berdi. Shulardan biri hisobot janridir. Bu janr xususida turlicha ta'riflar berilgan. Rus matbuotshunosi A.Tertichniy o'zining "Janry periodicheskoy pechati" kitobida hisobot janrining vazifasi turli yig'ilishlar, anjumanlarda ko'rib o'tilgan masalalarni keng va har taraflama yoritib berishdan iborat, deb ta'kidlaydi va "Har qanday hisobot muallifi xabar qilinayotgan tadbir ishtirokchilarining ismi-familiyasini va lavozimlarini aniq aytib o'tishi lozim, qabul qilingan qaror yoki vazifalarni muallif o'z fikri bilan emas, balki qanday bo'lsa, shundayicha, so'zmaso'z keltirishi kerak", deb qo'shimcha qiladi.⁸

"Qolaversa, jurnalistika tajribasida shunday fursatlar bo'ladiki, bo'lib o'tgan voqea tafsilotlarini yangiliklarda, ya'ni qisqa satrlarda yozishning imkoni bo'lmaydi, negaki mavzuni kengroq yoritish lozim. Reportaj yozish esa o'rinsiz, tahliliy maqolaga ham ehtiyoj bo'lmaydi, axir faqat axborot tariqasida berilishi lozim.

Xuddi shu fursatda hisobot janri «ishga tushadi»".⁹ Berilgan ta'riflardan ko'rinib turibdiki, hisobot kengaytirilgan xabarga yaqin turuvchi janr bo'lib, uning asosiy xususiyati hayotda bo'lib o'tadigan muhim ijtimoiy tadbir, anjuman va yig'ilish kabilar haqida kengroq ma'lumot berishdir. Agarda xabarda hayot faktlari, voqea va hodisalar haqida umuman ma'lumot berilsa, hisobotda uning mohiyati, mazmuni batafsil yoritiladi. Hisobotlar rasmiy, norasmiy, ma'lum mavzuga bag'ishlangan, muammoli va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

⁸ Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – Москва: Аспект пресс, 2000. – стр. 45.

⁹ Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент: "O'zbekiston", 2019. 510 бет. 71-бет



Hozirgi zamon o'zbek matbuoti nashrlarida hisobot janridan tez-tez foydalanib turiladi. Ularda respublikamiz Oliy Kengashi, hukumati, turli siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarida bo'lib o'tadigan majlislar, yig'ilish va turli anjumanlar yoritib boriladi. Masalan, "Ishonch" gazetasining 2020-yil 5-sentabr sonida bosilgan "Xalq ishonchini qozonish mas'uliyati"¹⁰ nomli hisobot Qashqadaryo viloyati madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy, ijtimoiy masalalari borasida, 2020-yil 8-sentabr sonidagi "Yig'im-terim boshlandi: mavsum qanday o'tadi?"¹¹ deb nomlanuvchi hisobot esa respublikadagi ijtimoy-iqtisodiy masalalarga doir, 2020-yil 21-yanvar sonida bosilgan "O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasining birinchi majlisi to'g'risida axborot"¹² nomli hisobot esa siyosiy material hisoblanadi.

Aytilgan misollardan shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamiz gazetalari o'z faoliyatlarida informasion publitsistikaning hisobot janridan keng foydalanib kelmoqdalar va bu ularga jurnalistikaning tasvir funksiyasini bajarishlari uchun xizmat qilmoqda.

Informasion publitsistikaning eng muhim, keng qo'llaniladigan janrlaridan biri – intervyu. Intervyu janri voqea-hodisa borasida informasiya yetkazishda respondentning shaxsiy nuqtai nazaridan foydalanish uchun qo'llaniladi. Shuningdek, bu janrdan ommaviy axborot vositalarining barcha turlari – gazetarlar, jurnallar, radio, televidenie, internet jurnalistikasi foydalanadi. "Intervyu ham janr, ham tadqiqot metodidir".¹³

Gazetarlar o'z yondashuvlariga ko'ra, intervyuning turli xil shakllaridan foydalanishadi. Masalan, "Xalq so'zi" gazetasida asosan intervyu-polilogdan foydalaniladi.

¹⁰ Абдиев А. Халқ ишончини қозониш масъулияти // "Ишонч" газетаси, 2020 йил 5 сентябрь

¹¹ Абдурахмонов С. Йиғим-терим бошланди: мавсум қандай ўтади? // "Ишонч" газетаси, 2020 йил 8 сентябрь

¹² ЎзА. Ўзбекистон республикаси Олий мажлиси қонунчилик палатасининг биринчи мажлиси тўғрисида ахборот. // "Ишонч" газетаси, 2020 йил 8 сентябрь

¹³ Lorenz D, Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage. – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler 2009 Springer-Verlag GmbH Deutschland, 95-бет



“Ishonch” gazetasining 2022-yil 20-yanvar sonida “Ustoz qadri ulug‘langan joyda”¹⁴ degan sarlavha ostida intervyu berilgan. Bu intervyuda soha vakillarining o‘z majburiyatlari borasida qilayotgan ishlari tizimli ravishda ochib berilgan. Jurnalist maqsadidagi yagona mavzuni ushlab tura olgan, mavzuga oid kompetensiya ma‘lumot olishda yaqqol ko‘ringan. Intervyu informasiyalar yetkazishda o‘ziga xos imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, “Ishonch” gazetasida bu janrga kam murojaat etiladi.

Hayotdagi yangiliklarni yoritishda, o‘quvchilarga qiziqarli ma‘lumotlar yetkazib berishda intervyuning ahamiyati kattaligidan xususiy gazetalar keng foydalanadilar. Ularning aksariyati san‘at, sport va boshqa qiziqarli mavzularda bo‘ladi. Bu intervyularda o‘sha sohalarda yuz berayotgan yangiliklar, ayrim san‘atkor va sportchilarning o‘z sohalarida erishgan yutuqlari bilan bir qatorda ularning hayotida bo‘lib o‘tayotgan voqealar (ayrim san‘atkorlarning oila qurishi, turmushiga xos masalalar va boshqalar) ham aks etadi. Bu esa gazetxonlarning ushbu intervyularni qiziqib o‘qishlariga sabab bo‘ladi. Albatta, intervyudan foydalanishda jurnalistdan yetuk bilim talab qilinadi. Chunki “jurnalistik deganda, shaxsiy xususiyatlar nazarda tutilmaydi. Jurnalistikaning ijtimoiyligini psixologik xususiyatlar, his-tuyg‘ular, subyektiv qarashlar, tushunchalar yoki fikrlar bilan izohlab bo‘lmaydi. Kimki jurnalistik savol berolmasa, jurnalistik javob ololmaydi.”¹⁵

Informasion publitsistikada reportaj janri ham muhim o‘rin tutadi. Reportaj so‘zi inglizcha report – yetkazmoq, xabar qilmoq¹⁶ degan ma‘noni beradi. Reportaj hayotda bo‘layotgan voqea va hodisalarni o‘quvchiga bevosita yetkazib beruvchi informasion janrdir. Reportaj o‘z xususiyatlariga ko‘ra voqea reportaji, biron-bir mavzuga bag‘ishlangan tematik reportaj, biror muammoni ko‘tarib chiquvchi reportaj kabilarga bo‘linadi.

“Reportajning muhim janr xususiyati aynan voqea joyida mavjudlik effekti sanaladi: voqea joyida bo‘lgan reportyor o‘zining jonli, tasviriy ifodalarga, qiziqarli faktlar va tafsilotlarga to‘la hikoyasi bilan o‘quvchida hodisalar markazida

¹⁴ Давлатов Р. Устоз қадри улуғланган жойда // “Ишонч” газетаси, 2022 йил 20 январь

¹⁵ Rühl M. Journalistik und Journalismus im Wandel. Eine kommunikations-wissenschaftliche Perspektive. – Wiesbaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften | Springer Fachmedien Wiesbaden GmbH 2011, 15-бет

¹⁶ <http://qomus.info/encyclopedia/cat-r/reportaj-uz/>



bo'lgandek hissiyot uyg'otadi. Voqea ishtirokchisi bo'lmasa ham, aynan reportyorning hodisaga aloqadorligi materialga takrorlanmas qiyofa baxsh etadi, voqea joyida mavjudlik effektini hosil qiladi, resipient ma'lumotning haqqoniyligini his qilib turadi va uni qabul qiladi.”¹⁷

Hozirgi kun o'zbek matbuotida reportaj janri ancha kam uchraydi. Afsuski, markaziy nashrlarimizda reportaj janri hali o'z o'rnini to'la topganicha yo'q. Markaziy umumsiyosiy gazetalar faqat ayrim hollardagina bu janrga murojaat qiladilar. “Voqeband reportajda tezkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo muammoli, mavzuli reportajlarda axborotlar darrov eskirmaydi. Chunki ularda jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan muayyan mavzu yoki muammoga taalluqli yangi axborotlar beriladi”.¹⁸ Holbuki, bu janr mamlakatimiz hayotida shu kunda yuz berayotgan eng muhim voqealarni aks ettirishning eng qulay vositalaridan biridir. Gazeta reportajlarida fotosuratlarining berilishi, ayrim o'rinlarda esa muhim voqealar haqida fotoreportajlar berilishi ham maqsadga muvofiqdir.

Subyektiv janrlardan biri – lavha janri ham informasiya yetkazishda muhim o'ringa ega. Lavha – xabarning biroz kengaytirilgan, adabiy-badiiy vositalardan foydalanilgan holda yozilgan ko'rinishidir. Lavha janri umumsiyosiy gazetalarda ayrim hollardagina qo'llaniladi.

Hayot voqealari haqida xabar berish, uni tasvirlash bilan shug'ullanuvchi informasion publitsistika gazetalar bilan bir qatorda jurnallarda ham ma'lum darajada o'rin oladi. Uning bu nashrlarda qanchalik aks etishi jurnalning turiga bog'liqdir. Hayotni badiiy publitsistika orqali yoritish bilan shug'ullanuvchi jurnallar – respublikamizda chiqadigan “Guliston”, “Saodat” singari nashrlarda informasion publitsistikaning ayrim janrlari o'rin olishi mumkin. Bu jurnallar ko'pincha lavha janridan keng foydalanadilar. Xotin-qizlar uchun nashr etiladigan “Saodat” jurnalida ham respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotida faol ishtirok etadigan xotin-qizlar haqidagi lavhalar doimiy berib boriladi.

¹⁷ Исмаилова К. Репортаж яратамиз... – Тошкент. “Muhr-press”, 2022. – 12-бет

¹⁸ Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ таҳририятлари учун ўқув қўлланма, Тошкент 2008, 25-бет



Xulosa qilib aytganda, informasion publitsistika jurnalistikaning informatsiya berish funksiyasini amalga oshirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. U nafaqat voqelikni aks ettiradi, balki jamiyatning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va axborot madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo‘nalishning sifatli rivoji matbuotning demokratik vazifalarini bajarishi va axborot maydonidagi raqobatbardoshligini ta’minlash uchun ham nihoyatda zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lorenz D. Journalismus, 2., aktualisierte und erweiterte Auflage. – Stuttgart, Weimar: Verlag J.B. Metzler. Springer-Verlag GmbH Deutschland, 2009
2. Neuberger Ch., Kapern P. Grundlagen des Journalismus, Wiebaden: Springer Fachmedien, 2013
3. Neuberger Ch., Kapern P., Grundlagen des Journalismus. – Wiesbaden: Springer Fachmedien, 2013
4. Rühl M. Journalistik und Journalismus im Wandel. Eine kommunikationswissenschaftliche Perspektive. – Wiebaden: VS Verlag für Sozialwissenschaften | Springer Fachmedien Wiesbaden GmbH, 2011
5. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. To‘ldirilgan va qayta ishlangan nashri. Toshkent: “Tafakkur”, 2011
6. Абдурахмонов С. Йиғим-терим бошланди: мавсум қандай ўтади? // “Ишонч” газетаси, 2020 йил 8 сентябрь
7. Давлатов Р. Устоз қадри улуғланган жойда // “Ишонч” газетаси, 2022 йил 20 январь
8. Журналистика: босма оммавий ахборот воситаларида жанрлар ва маҳорат масалалари. V жилд. – Тошкент, “O‘zbekiston”, 2019. 510 бет. 71-бет
9. Исмаилова К. Репортаж яратамиз... – Тошкент. “Muhr-press”, 2022. – 12-бет
10. Краткий курс лекция. Составители К.Т.Ирназаров, Я.М.Маматова. – Тошкент: НУУЗ, 2000.



11. Қосимова Н., Тошпўлатова Н., Шофайзиева Н., Муратова Н. Босма ОАВ тахририятлари учун ўқув қўлланма, Тошкент 2008, 25-бет
12. Нестеренко Ф.П., Ирназаров К.Т., Маматова Я.М. Труд журналиста: профессионализм, творчество, мастерство. 1-часть. Учебн. пособ. – Тошкент: 2002. Замоновий журналистика. – Тошкент: ЎзМУ, 2009. Ирназаров Қ.Т., Маматова Я.М., Тошалиев И.Э. Репортерлик фаолиятининг назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. Тошкент: ЎзМУ, 2002. 12. Информатсия в печати.
13. Одамбоев О. Оролга мадад // “Халқ сўзи” газетаси, 2019 йил 27 март
14. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. М.2003. Ворошилов В.В. Журналистика. Спб, 1999, Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – Москва:, 2000.
15. Тертычный А.А. Жанры периодической печати. – Москва: Аспект пресс, 2000. – стр. 45.
16. <http://qomus.info/encyclopedia/cat-r/reportaj-uz/>